

## TOPONIMIKANING ASOSIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

*Ashirov Zohid, Mirzayeva Muxlisa, Mamatvaliyeva Madina*

*Qo'qon davlat pedagogika institute Geografiya va IBA yo'nalishi talabasi*

**ANNOTATSIYA.** *Ushbu maqolada toponimik ma'lumotlarning shakllanishi, fanning rivojlanish bosqichlari, ilmiy toponimikaning paydo bo'lishi va hozirgi zamon toponimika fani haqida ma'lumot berilgan.*

**KALIT SO'ZLAR:** *Toponimika, fan, amaliy, ehtiyoj, ilmiy, toponimika, zamonaviy toponimika*

### **KIRISH**

Geografik nomlarga va ularning bildiradigan ma'nolariga qiziqish insoniyat sivilizatsiyasining dastlabki davrlaridanoq boshlandi. Shuning uchun toponimlarning dastlabki paydo bo'lish tarixini insoniyat tarixi bilan tenglashtirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shuni alohida ta'lidlash mumkinki insonlar dastlab joy nomlarini oddiy turdosh otlar bilan atashgan, ya'ni, tog', suv, ko'l va hokazo. Keyinchalik kishilik jamiyati rivojlangani sari joy nomlarini nomlash turdosh otdan atoqli otga almashtirildi. Buning natijasida joy nomlari qat'iylasha boshladi va toponimga aylandi. Bunga misol qilib qadimiy turkiy xalqlarning katta daryoni -o'kuz, edil, jayhun deb atashganlarini keltirish mumkin. Bu so'zlarning barchasi katta daryo ma'nosini bildirgan va keyinchalik bu toponimlarni nomi daryo nomlariga ko'chgan.

Toponimlarni tavsiflash va izohlashga bo'lgan dastlabki urinishlarni qadimgi Misr, Yunon, Xitoy, Hind va Rim tarixchilari va geograflarining asarlarida kuzatish mumkin. Hatto antik davrlarda ham geografik asarlarda joy nomlarini izohlashgan. Lekin bu davrda joy nomlarini izohlanganda ularning kelib chiqish tarixi turli afsonalar bilan bog'langan.

Toponimlarni ilk bor ilmiy jihatdan tadqiq qilishga urungan olim Pomponiy bo'lib u milodiy birinchi asrda yashagan. U o'zining "Xorografiya" asarida ba'zi

toponimlarni ilmiy izohlashga harakat qilgan.

Bu fanning to'liq ilmiy jihatdan paydo bo'lishi XVIII -XIX asrlarga to'g'ri keladi. Bu asrlarga kelib olimlar joy nomlarini kartaga tushirish bilan bir qatorda ularning kelib chiqish tarixi, qaysi tilga mansubligi, shakllanishi va qanday ma'noni anglatishini o'rgangan.

Toponimlarni klassifikatsiya qilish XVIII asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri keladi. Shu davrga kelibgina joy nomlariga muhim tarixiy va geografik ma'lumodlarni beruvchi manbaa sifatida qarala boshladi.

XIX asrga kelib toponimika faniga tilshunoslar, tarixchilar va kartografiya fani mutaxassislarining qiziqishlari kuchaydi. XX asr o'rtalariga kelib esa toponim olimlarning qilgan izlanishlari va o'tkazgan tadqiqotlari natijasida toponimlarning soni ortdi, saviyasi yaxshilandi.

XIX asrning ikkinchi yarmiga kelib toponimikaga bag'ishlangan maxsus asarlar paydo bo'di. Toponimikani o'rganish uchun alohida komissiyalar va toponimikani o'rganish jamiyatlari tuzildi. Masalan, G'arbiy Yevropa, jumladan, Fransiya, Angliya, Germaniya, Polshada barcha toponimik ishlarini muvofiqlashtiruvchi toponimik jamiyat yoki guruhlar paydo bo'ldi. AQSH da 1890 yili geografik nomlar byurosi, 1923 -yilda esa toponimik jamiyat tashkil qilindi.

Rossiyada ham 1847-yilda Rossiya geografiya jamiyati qoshida terminologiyani o'rganadigan maxsus komissiya tuzildi. Bu komissiya oz tadqiqotlarida toponimikaga ham katta e'tibor berdi. Bu tashkil etilgan komissiya faoliyati natijasida 4000 dan ziyod geografik terminlardan iborat lo'g'at tuzildi.

Keyingi asrlarda esa toponimik tadqiqotlardagi izlanishlar natijasida O'rta Osiyo va O'zbekiston toponimikasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Bu e'tibor natijasi o'laroq O'rta Osiyo va O'zbekiston hududidagi joy nomlarining toponimlari haqida juda ko'p ma'lumodlarni izohini topish mumkin. Bularga misol qilib vengriyalik olim A. Vamberi O'rta Osiyo hududiga mahfiy sayohat qilib tarixiy toponimikaga oid "Markaziy Osiyoning geografik nomlari" deb atalgan asar yozgan. Bu asarning lo'g'at qismida 600ga yaqin geografik nom va atamalar alifbo tartibida berilgan.

O'rta Osiyoni Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin esa rus olimlari O'rta Osiyo hududidagi mahalliy nomlarni ruscha transkripsiyasiga alohida e'tibor qaratgan. Ular o'z tadqiqotlarida toponimlar etimologiyasiga alohida e'tibor qaratgan.

XX asming 50-chi yillaridan boshlab toponimik tadqiqotlar keng quloq yozdi. Toponimik materialni to'plash va qayta ishlash sohasida jiddiy ishlar boshlandi. Toponimika bo'yicha maxsus mahkamalar, Geografiya jamiyatlari qoshida toponimik komissiyalari tuzildi hamda geografik nomlarni o'rganishga katta ahamiyat berildi. O'sha davrda toponimik tadqiqotlar uchta asosiy yo'nalishda olib borildi.

1. Toponimikaning nazariy masalalari va toponimik tadqiqotlar usullarini ishlab chiqish;

2. Sobiq Ittifoq va ittifoqdosh respublikalar doirasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar;

3. Makroregionlar va xorijiy mamlakatlar toponimikasiga doir ilmiy tadqiqotlar.

Mustaqil davlatlar hamdo'stligi tarkibidagi boshqa mamlakatlarda ham toponimikaga katta ahamiyat berib kelinadi. Geograf olimlardan beloruslik V. Juchkevich bu sohada ancha ishlar qilgan. Uning «Umumiy toponimika» nomli o'quv qo'llanmasi bir necha bor nashr etilgan. Olimning fikricha geografik nomlarni izohlashda geografik kuzatishlar muhim ahamiyatga ega. Shu sababdan, real hayotda nomning tug'ilishiga turtki bo'lgan alomatni topish toponimika uchun nihoyatda muhimdir.

## **XULOSA**

Toponimika fan sifatida shakllanishi uchun bir nechta bosqichlarni bosib o'tgan. Dastlab joy nomlari oddiy nomlar bilan nomlangan bo'lsa, keyinchalik joyning tarixi va geografik xususiyatlari hisobga olgan holda nomlanadigan bo'ldi. Dastlab toponimlar tarixi turli afsonalar bilan ta'riflangan bo'lsa keyinchalik toponimlarga joyning xususiyati haqida alohida ma'lumot beruvchi manbaa sifatida qaralgan. XVIII asning ikkinchi yarimidan, to XX asning birinchi yarimigacha toponimik

tadqiqotlar mazmunan boyidi, soni ko'paydi, sifat va saviya jihatdan ancha oshdi. Zaruriy ma'lumotlar to'planib, toponimikaga bag'ishlangan bir qancha asarlar yaratildi. Ularda geografik ob'ektlarni nomlash qonuniyatlarining ayrim jihatlari aniqlanib ilmiy toponimik tadqiqotlarga asos solindi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR**

1.Zohid Madrahimov “TARIXIY TOPONIMIKA” (o'quv qo'llanma) «Navro'z» nashriyoti Toshkent 2017

2.Xalimov Rabbim Xalimovich “Toponimika fanidan geografiya yo'nalishi talabalari uchun O'quv uslubiy majmua” Samarqand 2009

3.Hakimov Q. M., Mirakmalov M.T. “TOPONIMIKA” (DARSLIK) Toshkent «Tafakkur avlodi» 2020

4.Suyun Qorayev “TOPONIMIKA” O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi Muvofiqshartiruvchi Kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent — 2006

5.F.S.Meliboyeva ,M.O.Vohidova , A.S. Anorboyeva “TOPONIMIKANING GEOGRAFIYADAGI O'RNI” 2023

6. F.S.Meliboyeva, M.Q.Mirzayeva “Afrika materigining geografik o'rni va o'rganilish tarixi” mavzusini o'qitishda didaktik o'yinlardan foydalanish- Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi, 2023 - tadqiqotlar.uz

7.Qo'chqor Hakimov "Toponimika".Toshkent "Mumtoz so'z".2016

8.F.S.Meliboyeva, Z.Z.Ashirov, G.F.Jaxongirova “GEOGRAFIYA DARSLARIDA IJODIY O'YINLARDAN FOYDALANISH” 2023

9. F.S.Meliboyeva F.K.Otajonova M.Q.Mirzayeva “UMUMTA'LIM MAKTABLARI “TABIIY GEOGRAFIYA” KURSLARIDA GIDROLOGIK ATAMALARDAN FOYDALANISH 2023

10.F.S.Meliboyeva, M.Y.Ergasheva, Sh.A.Aliyeva, “MAKTAB GEOGRAFIYA DARSLARIDA TOPONIMIK MA'LUMOTLARDAN FOYDALANISH

11. F.S.Meliboyeva M.A.Mamatvaliyeva GEOGRAFIYA DARSLARIDA “ZAMONAVIY EKOLOGIK MUAMMOLAR” MAVZUSINI O‘QITISHDA INTERFAOL METODLARNI QO‘LLASH

12. F.S.Meliboyeva G.F.Jaxongirova Sh.Q.Ergashboyeva UMUMTA`LIM MAKTABLARINI 8-SINF GEOGRAFIYA DARSLARIDA “TRANSPORT GEOGRAFIYASI” MAVZUSINI O‘QITISHDA KO‘RGAZMALI QUROLLARDAN FOYDALANISH